

YANGI DAVR AKSIOLOGIYASIDA INSON QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOIQIY AHAMIYATI

Davletov Jamshid Bekmatovich, Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В АКСИОЛОГИИ НОВОГО ВРЕМЕНИ И ИХ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Давлетов Джамшид Бекматович, доцент Ургенчского технологического университета RANCH, доктор философии по философским наукам (PhD)

TRANSFORMATION OF HUMAN VALUES IN THE AXIOLOGY OF THE NEW ERA AND ITS SOCIAL IMPORTANCE

Davletov Jamshid Bekmatovich, Associate professor at Urganch Ranch of the technology university, PhD in Philosophy

Annotatsiya: Maqolada aksiologiyaning zamonaviy rivojlanishi va uning jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi va yangi davr aksiologiyasining asosiy xususiyatlari hamda uning ijtimoiy, madaniy jarayonlardagi transformatsiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy aksiologiyaning ijtimoiy ahamiyati, uning turli jamiyatlar va madaniyatlar o'ttasidagi aloqalarga ta'siri ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aksiologiya, qadriyat, globallashuv, zamonaviy davr, madaniyat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy tizim, inson huquqlari, insonparvarlik, estetika, san'at, go'zallik, ratsionalizm.

Abstract: The article analyzes the modern development of Axiology and its place in society and examines the main features of the Axiology of the new era and its transformation in social, cultural processes. The article also analyzes the social significance of modern Axiology, its impact on connections between different societies and cultures from a scientific point of view.

Key words: axiology, value, globalization, modern era, culture, social policy, social system, human rights, humanism, aesthetics, art, beauty, rationalism.

Аннотация: В статье анализируется современное развитие аксиологии и ее роль в обществе и рассматриваются основные черты аксиологии нового времени, а также ее трансформация в социальных, культурных процессах. В статье также анализируется с научной точки зрения социальное значение современной аксиологии, ее влияние на отношения между различными обществами и культурами.

Ключевые слова: аксиология, ценности, глобализация, новое время, культура, социальная политика, общественный строй, права человека, гуманизм, эстетика, искусство, красота, рационализм.



<https://orcid.org/0009-0005-0338-2272>
e-mail:
davletovjamshid7@gmail.com

KIRISH. Yangi davr falsafasi (XVII – XIX asrlar) falsafiy fikrlar va ilmiy yondashuvlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda aksiologiya, ya’ni qadriyatlar falsafasi, bir nechta muhim ta’sirlar va rivojlanish jarayonlariga duch keldi. Aksiologiya sohasida, ayniqsa, axloqiy, estetik va ijtimoiy yondashuvlar yangicha shakllandi. Yangi davrda aksiologiyaning ahamiyati nafaqat axloqiy qarorlar, balki estetik baholar, san’at va madaniyatni qadrlash, inson va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy adolat kabi tushunchalarda ham sezilarli o’zgarishlarga olib keldi.

Yangi davrda ilmiy inqiloblar va ratsionalizmning rivojlanishi aksiologiyaning shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatdi. Rene Dekart, Frencis Bekon, Isaak Nyuton kabi olimlarning ishlari ilm-fanning asoslarini yanada mustahkamladi hamda ilmiy yondashuvlar qadriyatlarni tushunishda yangi metodologiyalarni joriy etdi. Empirik, ratsionalist va matematik yondashuvlar orqali qadriyatlar, xususan, axloqiy va estetik qiymatlar, yanada mantiqiy asosda tahsil qilindi.

Bu davrda empirizm (tajriba asosida bilish) va ratsionalizm (aqlga asoslangan yondashuv) kabi ilmiy metodlar yordamida qadriyatlarni yaxshiroq tushunishga harakat qilindi. Falsafa va ilm-fanning bu bosqichi aksiologiyani ilmiy nuqtayi nazardan, yangi va aniqroq asoslarda ko’rishga imkon berdi. Shuningdek, bular jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va inson huquqlari haqidagi tasavvurlarni qayta ko’rib chiqishga sabab bo’ldi.

Jumladan, Isaak Nyutonning “Tabiatning harakat qonunlari” haqidagi asari, ilm-fan va bilishning yangi asoslarini qo’llab-quvvatladi. Bu ilmiy rivojlanish, dunyoqarashni yangilash bilan birga, qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni ham o’zgartirdi. Nyutonning dunyoqarashi, tabiatni va koinotni tartibga soluvchi qonunlarni aniq tushunishga imkon berib, ilmiy va axloqiy bilimlar o’rtasida bir bog’lanish yaratdi. Bu yangicha fikrlash, tabiiy bilimlarning haqiqatga, xolislik va adolatga intilishini ta’kidlaydi.

Rene Dekartning ratsionalizmi, insonni aql bilan boshqariladigan, maqsadga muvofiq hayotga yo’naltirishga chaqirdi. Dekart o’zining “Cogito, ergo sum” (Men o’ylayman, demak mavjudman) falsafasida, ilmiy va axloqiy qadriyatlarni

birlashtirishga urindi. Aqlni asosiy qadriyat sifatida ko’rish, yangi davrda axloqiy me’yorlarni shakllantirishga imkon yaratdi.

Shuningdek, yangi davrda siyosiy va ijtimoiy tizimlarda aksiologik fikrlar muhim rol o’ynadi. Inson huquqlari, erkinlik,adolat va tenglik kabi tushunchalar yangi yondashuvlarda alohida ahamiyatga ega bo’ldi. Jon Lokk va Jan-Jak Russo kabi faylasuflar insonning tabiiy huquqlari va ijtimoiy shartnomalarining aksiologik asoslarini ishlab chiqishdi. Masalan, Russo erkinlik va tenglikni jamiyatning asosiy qadriyatları sifatida e’lon qildi, bu esa ijtimoiy va siyosiy islohotlarga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Siyosiy aksiologiyaning rivojlanishi bilan birga, ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqaro huquqlarini hurmat qilish va erkin jamiyatni qurish masalalari kundalik siyosatda muhim o’rin tutdi. Yangi davrda jamiyatning qadriyatları faqat individning ichki erkinligi va yuksalishi bilan emas, balki jamiyatning ham yashashga mos keladigan qadriyatlar asosida qurilishi kerakligi tushunildi.

Xususan, Jon Lokkning “Tabiiy huquqlar” haqidagi g’oyalari, jumladan, insomning erkinlik, mulk va hayot huquqlarini himoya qilish masalalari aksiologiyaning siyosiy asoslarini yaratdi. Jon Lokk uchun insonning tabiiy huquqlari, jamiyatda adolatli tizimni yaratish uchun zaruriyat sifatida qabul qilindi. Bu g’oya, keyinchalik XVIII asrda Amerika mustaqilligi va Fransiya inqilobining asosiy falsafiy tamoyillaridan biriga aylandi.

Jan-Jak Russoning “Ijtimoiy shartnoma” asari, jamiyatning adolatli asosda tashkil etilishining aksiologik modelini yaratdi. Russo, erkinlik va tenglikni jamiyatning eng yuqori qadriyatları sifatida ko’rsatdi. Uning fikriga ko’ra, haqiqiy erkinlik faqat ijtimoiy shartnoma orqali adolatli va teng jamiyatda mayjud bo’lishi va bu g’oya, ijtimoiy tizimlarni shakllantirishda aksiologik nuqtayi nazarni qo’llashga imkon berdi.

Yangi davrda estetik qadriyatlar ham katta o’zgarishlarga uchradi. Immanuel Kantning estetik yondashuvlari, san’atni va go’zallikni aqliy va hissiy holatlarning aks etishi sifatida ko’rishga turki bo’ldi. Kantning estetik nazariyasi san’at va go’zallikni ma’lum bir shartlarga asoslanmagan holda baholashga imkon berdi. U shuningdek, estetik

qiymatlarni inson aqlining yuqori darajasi sifatida tushundi. Uning fikricha, go'zallikni anglashda inson aqlining erkinligi va hissiyotlari muhim rol o'ynaydi degan nazariyani ilgari surdi.

Bu davrda romantizm harakati san'atni insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini ifodalovchi vosita sifatida qadrlandi. Iogan Wolfgang fon Gyote va Fridrix Shiller kabi romantik faylasuflar san'at va estetik qadriyatlarini, ayniqsa, go'zallikni va san'atni insonning erkinligi va ruhiy holati bilan bog'lab tushuntirdilar. Ular uchun san'at faqat tashqi go'zallikni ifodalovchi narsa emas, balki insonning ichki maqsadlari va erkinligini namoyon etuvchi vosita sifatida qaraldi.

XIX asrda, ayniqsa, romantizm va ekzistensializm falsafiy harakatlarda aksiologiya yangi darajaga ko'tarildi. Ushbu falsafiy oqimlar, insonning ichki erkinligi, shaxsiy tajribalari va qadriyatarni yaratishda mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni ta'kidladilar. Bu yondashuvlar orqali aksiologiya, ya'ni qadriyatlar haqidagi tushunchalar, an'anaviy va obyektiv qarorlar tizimidan chiqqan holda, insonning ichki dunyosi, shaxsiy qarorlari va erkinligini asosiy omil sifatida ko'rib chiqildi.

Romantizm, ayniqsa, insonning ichki dunyosini, hissiy erkinligini va shaxsiy tajribalari asosida qadriyatlarni qadrlashga qaratilgan. Gyote va Fridrix Shiller kabi romantik faylasuflar san'at va go'zallikni insonning ichki erkinligi va hissiyotlari bilan bog'lab tushundilar. Shiller san'atni, insonni erkin va ma'naviy rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rgan. Uning fikriga ko'ra, san'at, insonni ijtimoiy me'yordan ajratib, uni o'z ichki olamiga, haqiqiy erkinlikka yo'naltirishi kerak edi. Gyote esa insonni tabiat bilan uyg'unlashtirib, uning erkinligini va shaxsiy yuksalishini ko'rsatishga intildi.

Bu borada Gyotening "Faust" asari romantizmning kuchli ifodasi sifatida insonning ichki kurashini va erkinlikka intilishini tasvirlaydi. Faustning o'z o'limidan oldin, ichki azoblaridan qutulib, haqiqatni topishga bo'lgan intilishi, romantizmdagi insonning ichki erkinligi va maqsadlar sari yo'l olishni ifodalaydi.

Ekzistensializmda aksiologiya, qadriyatlarni yaratishda insonning erkinligi va shaxsiy tanlovi asosiy o'rinda turadi. Ekzistensialistik faylasuflar, masalan, Jan-Pol Sartr, Martin Xaydegger, Fridrix Nitshe va Albert Kamyu, insonni o'z mavjudligini anglash, o'z hayotini yaratish va unga mas'ul bo'lishga chaqirdilar. Ular, qadriyatlarning

subyektiv va shaxsiy tanlovlarga asoslanganligini ta'kidladilar, ya'ni har bir inson o'z hayotining maqsadini va qiymatini o'zi belgilaydi.

Jan-Pol Sartr "Erkinlik va mas'uliyat" g'oyasini ilgari surgan. Sartrning fikricha, inson o'zini faqat o'zining harakatlari va qarorlari orqali tanishi mumkin. U insonning erkinligini shunday tushundi: "Inson ozod va mas'uldir, uning mavjudligi o'z harakatlari va tanlovlari bog'liq". Sartr uchun aksiologiya, har bir insonning o'z qadriyatlarini yaratishda erkin va mas'uliyatli bo'lishiga asoslanadi.

Albert Kamyu "Absurddan qochish" va "Hayotning ma'nosi yo'qligi" haqida fikr yuritgan. Kamyu, insonning o'z hayotining ma'nosini yaratishi kerakligini, lekin bu ma'noni koinot yoki jamiyat tomonidan taqdim etilgan an'anaviy qadriyatlardan izlamaslik zarurligini ta'kidlaydi. Uning "Mif yoki o'Icham" asarida, o'Ichamning yuksalib tushib borayotgan toshini qayta-qayta ko'tarishi, insonning maqsadsiz hayoti va uning o'z qadriyatlarini yaratish yo'lidagi kurashini ifodalaydi.

Yangi davr aksiologiyasi, ya'ni qadriyatlar falsafasi, faqat falsafiy fikrlarda emas, balki amaliy ijtimoiy hayotda ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yangi davrda aksiologiya, axloqiy qadriyatlar, madaniy tushunchalar va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqani chuqur o'rganishga imkon berdi. Bu davrda odamlar o'z qadriyatlarini nafaqat shaxsiy darajada, balki kengroq, ijtimoiy va siyosiy kontekstda ham shakkllantira boshladilar. Yangi davr aksiologiyasining ijtimoiy ta'siri ayniqsaadolat, tenglik va erkinlik kabi g'oyalar orqali aks etdi. Ushbu qadriyatlar ijtimoiy islohotlar va yangicha siyosiy tizimlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi.

NATIJALAR. Yangi davrda aksiologiya nafaqat shaxsiy qarorlar va shaxsiy yuksalishning asosini tashkil etdi, balki butun jamiyatni shakkllantiruvchi omilga aylandi. Insonlar o'z qadriyatlarini faqat o'z ichki dunyosida emas, balki ijtimoiy hayotda ham aniqlashdi va ularni jamiyatga moslashtirishga harakat qilishdi. Bu jarayonning asosiy omillari – ixtilof, o'zgarish va erkinlik bo'lib, ular yangicha ijtimoiy tizimlarning tashkil etilishida muhim rol o'ynadi.

Jumladan, Fransuz inqilobi (1789-yil) aksiologiyaning ijtimoiy ta'sirining yorqin namunasidir. Inqilob, "erkinlik, tenglik va birodarlik" kabi aksiologik qadriyatlarni asos qilib, eski feodal tizimni ag'darib tashladi. Bu qadriyatlar

jamiyatda adolatli ijtimoiy tuzumni yaratishga, shuningdek, yangi siyosiy tizim va huquqiy normalarni joriy etishga xizmat qildi. J.J.Russoning ijtimoiy shartnomasi haqidagi g'oyalari, inson huquqlariga oid talablar va tenglikni ta'kidlash, bu inqilobning aksilogik asoslarini tashkil etdi.

Yangi davr aksiologiyasi axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy adolatni yangi siyosiy tizimlarga kiritishning asosiy vositasi bo'ldi. Bu davrda ijtimoiy islohotlar, hukumatning demokratiyaga asoslangan siyosiy yondashuvlarini yaratish bilan bog'liq edi. Ayniqsa, axloqiy erkinlik, tenglik va siyosiy islohotlar kabi qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni tiklashga yordam berdi.

Amerika mustaqillik deklaratsiyasi (1776-yil) – bu ijtimoiy aksiologiyaning siyosiy shaklini ifodalovchi hujjatdir. Unda erkinlik, tenglik va baxtga erishish kabi qadriyatlar muhim o'rinni tutadi. Bu qadriyatlar Amerika jamiyatining yangi siyosiy tuzumi va qonunchiligiga asos bo'ldi. Amerika davlatining mustaqillikka erishishdagi asosiy maqsadi, xalqning o'z taqdirini belgilash huquqini e'tirof etish edi.

MUHOKAMA. Yangi davr aksiologiyasining yana bir muhim ijtimoiy ta'siri – gender tengligi masalasining ko'tarilishi bo'ldi. Aksiologiya jamiyatdagi qadriyatlar va axloqiy prinsiplarga asoslanib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka bo'lgan talabni kuchaytirdi. Bu davrda, ayniqsa, ayollar huquqlarini himoya qilish harakatlari tobora ommalashdi va ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar joriy etildi.

Yangi davr aksiologiyasi ijtimoiy hayotning turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Axloqiy qadriyatlar, adolat, tenglik va erkinlik kabi g'oyalari, yangi siyosiy tizimlar, ijtimoiy islohotlar va madaniy o'zgarishlarga turtki berdi. Yangi davrda aksiologiya, nafaqat shaxsiy darajada, balki jamiyatning har bir sohasida muhim o'rinni tutib, inson huquqlari, ta'limga, siyosiy islohotlar va gender tengligini rivojlantirishga yordam berdi.

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yangi davr aksiologiyasi falsafiy fikrlar, ilmiy yondashuvlar va ijtimoiy o'zgarishlarning ta'siri ostida shakllandi. Ushbu davrda aksiologiya, nafaqat qadriyatlarni ilmiy va falsafiy nuqtayi nazardan, balki ijtimoiy hayot va amaliyotdan ham tahlil qilishga imkon berdi. Yangi davrda aksiologiyaning

rivojlanishi, asosan, ilmiy inqiloblar, yangi siyosiy tizimlar va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ular jamiyatda keng ijtimoiy islohotlar va yangicha yondashuvlarni shakllantirdi. Ilmiy inqiloblar va yangi siyosiy tizimlar, ayniqsa, erkinlik, tenglik va adolat kabi qadriyatlarning ijtimoiy muhitda mustahkamlanishiga xizmat qildi. Bu qadriyatlar, ayni paytda, yangi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarni yaratishda asosiy kuch sifatida rol o'ynadi. Aksiologiya bu o'zgarishlarni chuqr tahlil qilib, ularning falsafiy asoslarini yaratishga yordam berdi.

Shuningdek, yangi davrda estetik va axloqiy qadriyatlar ham yangilanish jarayoniga kirib, insonning ichki va tashqi dunyosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. San'at va go'zallikni anglashda aksiologiya estetik qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, romantizm va klassik falsafiy qarashlar, san'at va go'zallikni insonning ichki erkinligi va estetik hissiyorlari bilan bog'lab ko'rdi.

Umuman olganda, yangi davr aksiologiyasi, insoniyatning yuksalishiga, erkinlikka va ijtimoiy adolatga bo'lgan intilishlarining falsafiy asoslarini yaratdi. Bu jarayonlar, nafaqat shaxsiy, balki butun jamiyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi va zamona viy qadriyatlarni shakllantirishga yordam berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xo'jaev I. Aksiologiya va uning zamona viy jamiyatdagi o'rni. – Toshkent: "Akademnashr". 2010. – B.125-130.
2. Tursunov A. Qadriyatlar va madaniyat: Zamona viy dunyodagi o'zgarishlar. – Toshkent: O'zbekiston. (2012). –B. 92-95.
3. Qodirov B. Insoniyatning axloqiy qadriyatlari. – Samarqand: Samarqand universiteti nashri. 2015. – B.110-115.
4. Salohiddinov X. Yangi davr aksiologiyasi: ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2018. – B.150-155.
5. Фролов Ю. Аксиология: Теория и практика. – Москва: Наука, 2009. 220-225 - ст.
6. Зотов В. Социальная аксиология. – Санкт-Петербург: Питер, 2014. 185-190 - ст.
7. Петрова Л. Культура и ценности: Социальные и философско-культурные аспекты. – Москва: Изд-во РГГУ. 2016. 200-205 - ст.